

**SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**SAMARQAND VILOYATIDA
XIZMATLAR SOHASINING
RIVOJLANISHI**

**2022- YILNING
YANVAR-OKTABR OYLARIDA**

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi –
18 505,6 mlrd. so'm



Xizmatlar sohasida kichik biznesning
ulushi – **67,8 %**



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi – **4 554,7 ming so'm**

Xizmatlar sohasini har tomonlama rivojlantirish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, samarali bandlik va aholi turmush darajasini oshirishning dolzarb masalasidir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 635,4 mlrd. so'mga** oshib, **18 505,6 mlrd. so'mga** yetdi.

Taqqoslama ekvivalentda 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga (**121,2 %**) nisbatan o'sish sur'ati **115,2 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-oktabr oylarida umumiy savdo xizmatlari **28,1 %**, transport xizmatlari **25,3 %**, moliyaviy xizmatlar **14,6 %**, ta'lim sohasidagi xizmatlar **5,1 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **4,6 %** ni tashkil etdi. Ushbu davrda me'morchilik sohasidagi xizmatlarning ulushi ham minimal bo'lgan – **1,8 %**.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da (2022- yil yanvar-oktabr)



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-oktabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm		O'sish sur'ati, % da
	2021- y.	2022- y.	
Xizmatlar – jami	14 870,2	18 505,6	115,2
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	688,3	865,7	124,8
Moliyaviy xizmatlar	2 172,1	3 004,5	135,7
Transport xizmatlari	3 766,8	4 357,2	108,7
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>3 531,3</i>	<i>4 120,2</i>	<i>109,5</i>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	506,8	687,2	115,3
Savdo xizmatlari	4 176,0	5 198,0	111,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlari	381,3	459,4	112,9
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	759,9	928,9	113,1
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlari	301,4	386,4	116,0
Ijara xizmatlari	447,8	539,8	112,9
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	448,5	545,0	109,3
Shaxsiy xizmatlar	618,3	810,1	111,7
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	270,4	272,4	94,4
Boshqa xizmatlar	332,6	451,0	124,1

Aholi tomonidan xizmatlar sohasining har xil turlariga bo'lgan talabning barqaror o'sishi va davlat tomonidan amalga oshirilayotgan infratuzilmani (ijtimoiy, transport-kommunikatsiya, savdo va boshqalar) rivojlantirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar xizmat ko'rsatish sohasining barcha tarmoqlarini jadal rivojlantirishni ta'minladi.

Masalan, savdo ibtidoiy taqsimlash mexanizmidan iste'molchiga yo'naltirilgan bozor talabini yaratish jarayonining faol ishtirokchisiga aylandi.

Hozirgi vaqtida savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiyligi muhim qismini tashkil etadi.



2022-yil yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligida savdo xizmatlari ulushi

O'sish sur'ati, % da



Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm




SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Transport xizmatlari hajmining o'sishi, yuk va yo'lovchilarni tashish xizmatlariga talabning oshishi bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida turistik faoliyatning jadal rivojlanishi, savdo tarmog'ining kengayishi, qurilish loyihalari hajmini yanada kengaytirishga, bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish, shuningdek, transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq.


2022- yil yanvar-oktabr oylarida transport xizmatlari hajmi **4 357,2** mlrd. so'mni tashkil etdi, ularning o'sishi 2021- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan **8,7 %** ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ushbu turdag'i xizmatlarning ulushi – **23,6 %**.



*O'sish
sur'ati, % da*



*Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm*




Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi. Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.


**Tashish turlari bo'yicha
avtomobil transporti xizmatlarining
tarkibi, % da**




**O'sish
sur'ati, % da**



**Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm**



Bank tizimining moliyaviy barqarorligini isloh qilish hamda mustahkamlash, pul-kredit siyosatini erkinlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirdorlik subyektlarini kreditlash mexanizmini takomillashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlashni yanada kengaytirish, real vaqt rejimida xizmatlar ko'lamini kengaytirish (Internet-banking, mobil banking) moliyaviy tashkilotlarning so'nggi elektron to'lov texnologiyalarini joriy etish tarmoqlari moliyaviy xizmatlarning o'sishiga ta'sir ko'rsatdi.



Moliyaviy xizmatlar (yanvar-oktabr)

Moliyaviy xizmatlarning hajmi **832,4** mlrd. so'mga oshdi va **3 004,5** mlrd. so'mga yetdi. Moliyaviy xizmatlarning umumiyligi hajmida **16,2 %** ni tashkil etdi. Jami moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati **135,7 %** ni tashkil etdi.

*O'sish sur'ati,
% da*




*Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm*




Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida innovatsiyalarni joriy etish va ulardan samarali foydalanish korxonalarda boshqaruva va texnologik jarayonlarning samaradorligini oshirishga yordam beradi, iqtisodiyotning turli sohalarida mavjud bo‘lgan tovar va xizmatlar bozorini kengaytirish va yangilarini barpo etish, oxir-oqibatda aholi turmush sifatini yaxshilashga olib keladi.


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da (2022- yil yanvar-oktabr)



*O'sish sur'ati,
% da*




*Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm*




Ta'lim sohasidagi xizmatlar (yanvar-oktabr)

O'sish sur'ati,
% da



Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm




2022- yil yanvar-oktabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **928,9** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **5,0** % ini tashkil etdi. 2021- yil yanvar-oktabrga nisbatan o'sish sur'ati **113,1** % ni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-oktabrda xizmatlar hajmi **759,9** mlrd. so'mni tashkil etgan. 2020- yilga nisbatan esa **36,9** % ga o'sish qayd etilgan.




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (yanvar-oktabr)

O'sish sur'ati,
% da



Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm



2022- yil yanvar-oktabr oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **386,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiyligi hajmida ularning ulushi **2,1** % ni tashkil etdi.


2021- yilning yanvar-oktabriga nisbatan o'sish sur'ati **116,0** % ni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-oktabr oylarida ushbu xizmatlar hajmi **301,4** mlrd. so'mni yoki ularning umumiyligi hajmining **2,0** % ini tashkil etgan.




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (yanvar-oktabr)

O'sish sur'ati,
% da



Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm




Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatalgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.



Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-oktabr)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da
Samarqand viloyati	18 505,6	115,2
Samarqand shahri	8 019,2	118,7
Kattaqo'rg'on shahri	425,4	113,5
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	641,6	112,4
Bulung'ur	495,7	112,1
Jomboy	741,7	112,4
Ishtixon	653,4	112,3
Kattaqo'rg'on	722,5	112,0
Qo'shrabot	363,8	112,1
Narpay	607,3	112,0
Payariq	649,3	112,3
Pastdarg'om	1 128,8	112,0
Paxtachi	406,3	112,2
Samarqand	1 230,7	113,5
Nurobod	365,7	112,1
Urgut	1 245,3	113,4
Toyloq	808,9	113,8

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasi aholining munosib turmush sifatini ta'minlash ko'rsatkichidir, chunki xizmatlar bozorining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omil bu – aholining real daromadlari va turmush darajasining o'sishi.




Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-oktabr)

2022- yilning yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4 554,7** ming so'mga yetdi. 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **112,8 %** ni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi **3 737,9** ming so'mni tashkil etgan.

*O'sish sur'ati,
% da*



*Xizmatlar hajmi,
ming so'mda*

